

# **OLIV TA'LIM TIZIMINING TAKOMILLASHTIRISH VA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA TALABALAR ORASIDAGI NIZOLARNI BARTARAF QILISH YO'LLARI**

**Imomov In'omiddin Abdulxamidovich**

*Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
TDIU katta o'qituvchisi*

## **Annotasiya**

*Mazkur maqolada muallif pedagogik nizolarni ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keluvchi hodisa sifatida o'rganib, u oliy ta'lim muassalari o'quv jarayonida vujudga keladigan nizolar va nizoli vaziyatlarni bartaraf etishni pedagogika fani nuqtai nazaridan ochib bergan.*

## **Аннотация**

*В данной статье автор исследовал педагогические конфликты как явление, возникающее в процессе обучения, и раскрыл устранение конфликтов и конфликтных ситуаций, возникающих в образовательном процессе высших учебных заведений с точки зрения педагогики.*

## **Abstract**

*In this state, the author investigated pedagogical conflicts in the training, driving and training process, and resolved the conflict and conflict situations, driving and training in the training process, and the pedagogy of tochki zreniya.*

## **Kalit so'zlar**

*munosabat, nizo, jarayon, talaba, ta'lim muassasasi.*

## **Ключевые слова**

*отношение, конфликт, процесс, студент, образовательное учреждение.*

## **Key words**

*relationship, conflict, process, student, educational institution.*

## **Kirish**

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida uning ishtirokchilari o'rtasida muayyan nizolar yuzaga keladi. Ishtirokchilarning amalga oshirilayotgan faoliyat (ishning bajarilishi)ga bo'lgan munosabatlari, nizoni yuzaga keltiruvchi vaziyatni turlicha talqin etishlari, qarshi tomon ishtirokining salbiy yoki past baholashlari, faoliyatni tashkil etishdagi shaxsiy rolni bo'rttirib ko'rsatishlari, sabablarni chuqur tahlil qilmasliklari va eng muhimi nizoni o'z o'rnini, vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilamasliklari pedagogik nizolarning kelib chiqishi uchun sharoit yaratadi.

Ko'p sonli va turli yoshdagi sub'ektlarga egalik, har bir sub'ektning individual ravishda psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlarni namoyon etishi, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda turli darajada faollik ko'rsatishi ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda u yoki bu ko'rinishdagi pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining boshqaruvchi va bo'ysunuvchi (ta'lim muassasasi rahbari, pedagoglar jamoasi, pedagog, talaba, talabaning ota-onasi),

nazoratchi va nazorat qiluvchi, buyruq beruvchi va ijro etuvchi kabi ikki yirik guruhga ajralishlari hamda ular o'rtasidagi yosh, bilim, hayotiy tajriba o'rtasidagi farqning kattaligi esa pedagogik nizolarning sodir bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlat tahlili**

“Pedagogik nizo” tushunchasini shaxsning ta'limi va tarbiyasiga dahldor sub'ektlarning faoliyatlari nuqtai nazardan izohlash to'g'ri bo'ladi. Ya'ni:

Pedagogik nizo – bu ta'lim va tarbiya jarayonida uning ishtirokchilari (ta'lim muassasalarining rahbarlari, pedagoglar jamoasi, talabalar hamda ularning ota-onalari) o'rtasida yuzaga keladigan va bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlar to'qnashuvi sanaladi. Demak, pedagogik nizolar deganda pedagog va talaba o'rtasidagi ta'lim jarayonida kuzatiladigan nizolar, tortishuvlar kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar nazarda tutilishi lozim.

Nizo, ziddiyat, qarama-qarshilik tabiat va jamiyatda, shaxs ruhiyatida va shaxslararo munosabatda har doim mavjud. Faqat u har xil sabablarga ko'ra ko'rinmasdan yotishi mumkin. Mutafakkirlar “Taraqqiyot-aslida nizodan kelib chiqqan” degan fikrlarni ham bildirib o'tadilar. Balki, shundaydir. Biz har doim, har bir faoliyatimizda turli xildagi nizolarni, ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish bilan o'z maqsadimizga erishamiz. Ularni qanchalik oson hal qilsak, ishimiz, shunchalik unumli bo'lganidan, natijasi yaxshi ekanligidan mamnun bo'lamiz. Faoliyatimiz, ishimizning unumdorligi vujudga kelgan qarama-qarshilik, ziddiyat, nizoni qanchalik tez va qulay yo'llar bilan hal qilganligimizga bog'liq bo'ladi [1]. Hayot nizolarga to'la. Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavur etib bo'lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har joyda, har qanday vaziyatda to'qnash kelish mumkin. Nizolar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a'zolari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Nizolar, odatda, ko'p vaqt odamlar birga bo'ladigan hollarda, ya'ni ular uzoq muddat bir-birlari bilan psixologik va ruhiy muloqotda bo'ladigan holarda, ular ma'lum muddat o'zaro birga bo'lishga majbur bo'lgan paytlarida ko'proq sodir bo'ladi.

Hech bir inson o'zini nizolardan doimiy muhofaza qilingan deb hisoblay olmaydi. Chunki nizolar ba'zan qo'qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Nizo har bir inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, hech bir inson nizolardan o'zini “kafolatlanganman” deb ishonch bilan ayta olmaydi. Har birimiz bolalik davrlarimizdan nizo vaziyatlarga tushamiz va bu holatlardan chiqib ketish yo'l va usullarini qidiramiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nizo ijtimoiy xodisa hisoblanadi. Chunki u ko'pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqea va hodisalarni qamrab oladi hamda nizo rivojidan har bir inson, yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o'rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi zarar ko'rishini mumkin. [2]

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Shaxslararo va shaxsning o'zida doimo qondirilmagan ishtiyoq, yechilmagan masala, o'rtada bo'linishi lozim bo'lgan moddiy ob'ekt, moddiy va ba'zan ma'naviy ob'ektga intilish, inson mohiyatida ziddiyatga yetaklovchi xususiyat sifatida mavjud. Ushbu muammo va masalalarning harakatga tushib ketish imkoni esa hamma vaqt tayyor holatda bo'ladi. Bu imkoniyatlar ma'lum darajada vaqti-vaqti bilan, pog'onama-pog'ona uyg'onib qolishi mumkin. Ayni shunday paytlarda nizo va uning hal qilinishi ma'lum ma'noda o'ta dolzarb, zarur, kechiktirib bo'lmas holatga tushib

qoladi-da shaxsning ichki ruhiyatida yoki shaxslar orasida, guruhlar orasida faol fazaga kirib, nizoning yechim talab qilgan davri boshlanishi mumkin [3].

Qizig'i shundaki, nizo qanchalik barbod qilish kuchiga ega bo'lsa, u bir vaqtning o'zida ko'pchilik holatlarda shunchalik bunyod qilish kuchiga ham ega bo'lishi mumkin. Har qanday nizo faollik davrida tig'izlik, tajanglik, stress holatni keltirib chiqaradi. Tig'izlik, tajanglik, stress holat esa ma'lum darajada energiyaning siqiq, ramziy ma'noda aytganda, sakrashga tayyor turgan kuch ekanligini ko'rsatadi. Shunday ekan nizo-taraqqiyot turtkisi, tarix rivojining ichki harakatga keltiruvchi kuchi, munosabatlarni kuchga keltiruvchi quvvat va shaxsning ichki taraqqiyoti, o'sishi uchun ichki omil sifatida bo'lishi kerak bo'lgan xususiyatlardan biriga aylanadi.

Aslini olganda, biz hammamiz nizo chiqqan joydan qochishga va ayniqsa uning sabablarini qidirmaslikka o'rganib qolganmiz. Aslida yechilmagan har qanday nizoning, ziddiyatning bir uchi o'zimizda bo'lishini unutib qo'yamiz. Shaxs sifatida biz o'z ruhiyatimiz va atrofimizdagilar bilan nizosiz yashay olmaymiz. [3] Gap shundaki, nizolarning qay biri rivojiga va qay biri ruhiy va jamiyatdagi o'rnimizni inqirozga olib kelishini aniq bilishimiz va bu nizo, nizoviy holatni boshqara olishimiz kerak.

Amaliy nizo odatda qat'iy prinsipal tortishuvlarda mavjud bo'ladi. Amaliy nizo odamlarni ahillashtiradi, muhim muammolarni yechishga yordam beradi va har yerda sog'lam ruhiy muxit yaratadi. Amaliy nizo foydali raqobatchilikni rivojlantiradi va ochiqdan ochiq, prinsipial tanqidlarga va o'zini-o'zi tanqid qilishga asoslanadi. Amaliy nizo ko'pincha demokratik boshqarish usulida va ishlab chiqarishga oid bo'lgan tortishuvlarda uchraydi.

Vayronaviy nizo ko'pincha gap chuvlashishidan, arzimas mayda gap g'avgolar oqibatida ro'yobga keladi. Bu holda opponetlar ish manfaatini ko'zlashmaydi. Ularning butun xayoli kurashga jalb etiladi va raqibiga qanchali ko'proq zarba berishga qaratiladi. Shaxslararo mojaralarda va avtoritar uslubdagi boshqaruvda odatda vayronaviy nizolar ko'p uchraydi.

Turli ijtimoiy vaziyatlardagi noqulayliklar, muammolar, o'ziga xos ziddiyatlarni keltirib chiqarishi ma'lum. Shunga ko'ra, inson yosh davrlarida kritik hissiy-kechinmalar kuzatiladi. Yosh davri nizolari – bu o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar ro'y beradi. [4]

Nizo signallari nizoning to'la namoyon bo'lishidan oldin tomonlar o'rtasidagi odatdagi to'g'ri munosabatlar o'rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, g'ayirlik, ayrmakashlik vujudga kelayotganligini namoyon etadi. Nizo signallariga bee'tiborlik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, nizo signallarini bilish va ularga e'tiborli munosabat talab qilinadi.

Ammo hayotdagi to'qnashuvlarda har ikkala o'rin ham - birinchi o'rin bo'lishi mumkin. Chunki hayotdagi to'qnashuvlarda har bir tomonning yutug'i boshqacha bo'lishi mumkin. Bir tomon o'zining ma'lum manfaatlarini, ikkinchi tomon ham o'zining ma'lum manfaatlarini himoyalab, ziddiyatda yutishi mumkin. Manfaatlari esa har xil bo'lishi mumkin. Shu bois, nizoda – “Men yutishim kerak, shu bois men senga halaqit beraman. Men seni to'xtataman. Faqat mening aytganim bo'ladi”, deb bo'lmaydi. Nizoda “Sening manfaating mana bunda ekan, mening manfaatim esa – bunda. Shu bois, o'zaro kelishsak, sening manfaating ham, mening manfaatim ham muhofaza qilinadi”, qabilida ish ko'rish foydalibroq bo'ladi.

## **Tahlil va natijalar**

Shaxsda tug'iladigan ziddiyat maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa o'z samarasini beradi. Maqsadli ziddiyat bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda ziddiyat shaxsiy maqsad asosida kelib chiqadi. Ikkinchi bosqichda ziddiyatli vaziyatning maqsadini tuzatgan holda ayrim qismlari tahlil qilinadi. Ziddiyatni keltirib chiqaruvchi tashkilotchisi bo'ladi. Ziddiyatda maqsadga yo'naltirilgan hatti-harakatlar tug'iladi. Maqsad ishonchli bo'lmasa u kuchini yo'qotadi. Turli maqsadlar o'zining yutug'i uchun turli usullarni talab qiladi. Shuningdek, ishonchli bo'lmagan maqsad - "deklarativ maqsad" dir. Masalan, bir narsani talab qilib boshqa narsa ko'zda tutiladi. Shaxs nizoni keltirib chiqarayotgan paytda xuddi boshqalarni manfaatini ko'zlab harakat qilayotgandek ko'rsatadi o'zini, aslida esa o'zini manfaatini ko'zlaydi. Nizodagi hatti-harakatlar faqat maqsadga qaratilgan bo'lmasdan, realistik tabiatga ega bo'ladi. Intellekt darajasi, ishlab chiqarish muammosi bo'yicha bilim ayni paytdagi ziddiyatni hal qilish uchun vaziyatni to'g'ri ko'rish kafolatini bermaydi. Shaxs ziddiyatga borayotganida anglanilmagan motivlar asosida hatti-harakat qilishi mumkin. Demak, shaxs nizo tug'ilayotgan paytda o'zining aniq maqsadiga va anglanilgan motivlariga(asosi) ega bo'lishi zarur. Ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun o'z shaxsiy manfaatiningina ko'zlamasdan, bo'tun jamoani manfaatini ko'zlab ish olib borish lozim. Ideal "men"imiz hech qachon real "men"imiz bilan to'g'ri kelavermaydi.

Ziddiyatli vaziyatning ob'ektiv rejasini idrok qilish. Ziddiyatni bartaraf qilayotganda chegarani his qila bilish kerak. Ya'ni "kutish" va "harakat qilish" orasidagi chegarani aniqlash ko'nikmasi bo'lishi zarur.

O'z-o'ziga baho berishning past bo'lishi passiv bo'lishga olib keladi: aslida u voqealarga faol yondosha olishi, atrofdagilar kutayotgan xulq-atvorni namoyon qila bilishi zarur. Opponent uchun o'ziga yuqori baho berish ziddiyatli vaziyatni to'g'ri idrok qilaolmaslikka, tez va oson g'alabaga erishishni kutishga olib kelsa, o'ziga past baho berish vaziyatning murakkabligini ko'chaytirib idrok qilish, muvaffaqiyatga erishishga ishonmaslik, ziddiyatdan kelib chiqadigan salbiy oqibatidan himoyalaniishga olib keladi.

## **Xulosa va takliflar**

Talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun bir necha texnologiyalar mavjud. Bu masalani hal qilish uchun kerakli texnologiyalar o'qituvchilar va mentorlar tomonidan o'rganiladi.

Bu maqolada, talabalar orasidagi nizolarni bartaraf etish uchun qo'llanadigan texnologiyalardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

1. Chat-botlar: Talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun o'quvchilar yoki mentorlar tomonidan yaratilgan chat-botlardan foydalanish mumkin. Chat-botlar talabalarning savollariga javob beradi va muammolariga yordam beradi.

2. Onlayn-maydonlar: Talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun onlayn-maydonlardan foydalanish mumkin. Bu maydonlarda talabalar bir-biri bilan muloqot qilishadi va ularning muammolariga yordam beradi.

3. Onlayn-hamkorlik tizimlari: Talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun onlayn-hamkorlik tizimlaridan foydalanish mumkin. Bu tizimlarda talabalar bir-biriga yordam beradi va ularning muammolariga yordam beradi.

4. Bir necha talabalarga mentorlik qilish: Talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun bir necha talabalarga mentorlik qilish mumkin. Mentorlar talabalarga maslahat beradi va ularning muammolariga yordam beradi.

Ushbu texnologiyalar talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun foydalanadigan texnologiyalardan faqat ba'zilaridir. Muhim holatda, talabalar orasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun muloqotda bo'luvchi, halqaro muloqotlarda, ma'lumotlarni bir-biriga ulgurlashtirishda va maslahatlarni berishda yordam beradigan mentorlar yoki o'quvchilarning foydalanish mumkin.

### ***Adabiyotlar ro'yhati***

1. Baybaeva M.X. *Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* – T. 2022. №. Special Issue 4-2. 403-411 b.

2. Baybaeva M.X. *Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli // Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal.* – T. 2022. №. 5. Bet. 59-66.

3. Karimova V.M. *Psixologiya / O'quv qo'llanma.* – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002. Bet 205.

4. To'ychieva G.U. *Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o'rganish.* – T. 2008. 128 b.

## **STUDENTS' SECONDARY LANGUAGE PERSONALITY PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT**

**Ibragimova Shaxnoza Nosirjon qizi**

*TDIU, Umumiy va aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

### ***Abstract***

*The author's approach specifies the complexity of the notion of language consciousness and the ways to follow in order to form a secondary language personality capable of playing the role of a mediator in intercultural dialogue. The paper analyses the phenomenon of language personality from the point of view of psychology. The author suggests a comprehensive, systematic approach to intercultural communication that primarily requires conscious psychological disclosure of regulative functions of linguistic awareness in communicative activity.*

### ***Keywords***

*Psychological approach; secondary linguistic personality; language consciousness; intercultural communication*

### **Introduction**

Intercultural communication plays a vital role in today's globalized world. Its effectiveness depends on its participants. This primarily refers to interpreters and other professionals, whose task is mediation in situations of intercultural dialogue. In our opinion, psychology plays a fundamental role in the process itself, as well as in the development of human psychological capabilities required for its implementation. Ferdinand de Saussure, an outstanding linguist and scholar arrived at the same conclusion: "... Therefore, it is possible to imagine a science that studies the life of